

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/B.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**MAXMUDOV LAZIZBEK UMARJONOVICH**

**SUPRAMOLEKUYAR KOMPLEKSLAR ASOSIDA OLINGAN YANGI  
PAST DOZALI PREPARATLARNING BIOLOGIK VA FARMAKOLOGIK  
XOSSALARI**

**02.00.10 - Bioorganik kimyo**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Biologiya fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on biological sciences**

**Maxmudov Lazizbek Umarjonovich**

Supramolekulyar komplekslar asosida olingan yangi past dozali preparatlarning biologik va farmakologik xossalari..... 3

**Махмудов Лазизбек Умаржонович**

Биологические и фармакологические свойства низкодозовых препаратов, полученных на основе супрамолекулярных комплексов... 21

**Makhmudov Lazizbek Umarjonovich**

Biological and pharmacological properties of low-dose drugs obtained on the basis of supramolecular complexes..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/B.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**MAXMUDOV LAZIZBEK UMARJONOVICH**

**SUPRAMOLEKUYAR KOMPLEKSLAR ASOSIDA OLINGAN YANGI  
PAST DOZALI PREPARATLARNING BIOLOGIK VA FARMAKOLOGIK  
XOSSALARI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2021.2.PhD/B590 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Bioorganik kimyo institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.biochem.uz](http://www.biochem.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** Tagayaliyeva Nigora Abdunabiyevna  
biologiya fanlari nomzodi, k.i.x.

**Rasmiy opponentlar:** Yuldashev Nasirdjan Muxamedjanovich  
biologiya fanlari doktori, professor  
Abdulladjanova Nodira Gulyamjonovna  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Andijon Davlat Universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Bioorganik kimyo instituti huzuridagi DS.02/30.12.2019.K/B.37/01 raqamli Ilmiy kengashning « 19 » NOVABR 2024yilda soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, g. Toshkent, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 83. Tel.: 262-35-40, faks: (99871) 262-70-63.

Dissertatsiya bilan Bioorganik kimyo institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 259 raqam ostida ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, g. Toshkent, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 83. Tel.: 262-35-40, faks: (99871) 262-70-63, e-mail: shsha@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati: « 12 » 2024 yil NOVABR kuni tarqatildi.  
(№ « 1 » 12 NOVABR 2024 yildagi reestr bayonnomasi).



**Sh.I. Salixov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

**N.R.Xashimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengashilmiy kotibi, b.f.d.

**M.B. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, k.f.d professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda jigarning surunkali diffuz kasalliklari o'zining keng tarqalganligi, ularni jiddiy asoratlarning (sirroz, saraton) dunyo hamjamiyati va butun dunyo sog'liqni saqlashda markaziy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jigardagi patologik jarayonlarning sababchisi viruslar, ekzogen zaharli moddalar (alkogol, dori preparatlari, ksenobiotiklar), immunitet holatining buzilishi, metabolik jarayonlar, aholi jismoniy faolligining pasayishi, betartib ovqatlanish, shunidek genetik omillardir. Hozirgi kunda dori vositalarini biologik o'zlashtirilishi yuqori bo'lgan, uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadigan, past dozali va kam zaharli, target mexanizmli dori vositalarini yaratish katta amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda bugungi kunda turli tabiatdagi nanozarralar shaklida dorilarini yetkazib berish tizimidan foydalanadigan nanofarmakologiyaga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada turli xil etiologiyali jigar kasalliklarini davolash uchun yangi, o'ziga xos dori vositalarini ishlab chiqish viruslarga qarshi, detoksifikatsiya, immunotrop, gepatoprotektor ta'sirlarga ega biologik faol moddalarni ("mehmon molekulalar") tashuvchisi ("mezbonlar") bilan komplekslarini olish va turli kasalliklarni davolash uchun samarali dori preparatlarini yaratishga alohida e'tibor berilmogda.

Respublikamizda iqtisodiy qulaylikni ta'minlovchi mahalliy o'simlik xom ashyosi asosida dori vositalarini ishlab chiqishga va aholini sifatli dori-darmonlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishida «Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Shu yo'nalish sohasida xavfsiz, kam dozali, bitta preparatning o'zida gepatoprotektor, antioksidant, immunotrop va boshqa xususiyatlarni saqlagan dori vositalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-55-sonli farmoni<sup>2</sup>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli farmonida belgilangan "Dorivor o'simlik xom ashyosidan tayyorlangan biologik faol qo'shimchalar va dori-darmonlarni dorixona savdo maydonchasi javonlarining kamida 10 foiziga joylashtirish" va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muayyan darajada hal etishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-con «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Bugungi kunda dunyo miqyosida koʻpgina ilmiy markazlarida preparatlarning biologik oʻzlashtirilishini yaxshilash va target terapiya ishlab chiqish boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Li G.F. rahbarligidagi olimlar glitsirizin kislota (GK)ning ayrim qiyin eriydigan sitostatik paklitaksel, podofilotoksin, gidroksikamtotesin, izoxinolin alkaloidi berberin kabi birikmalarni eruvchan shaklga oʻtkazishini koʻrsatib berdilar, shu bilan biologik oʻzlashtirilishining yaxshilanishiga va zaharliligining kamayishiga olib kelgan. Radwant M.A., Aboul-Enein H.Y. va hamkasblari insulinli nanosferalarning soʻrilishini kuchaytirish uchun GKdan foydalanishgan, bunda nanosferalar bilan bogʻlangan insulin 12 kungacha kalamushlarning 50 foizida oʻzining biologik faolligini saqlab qolgan.

MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiyada Tolstikov G.A., Salaxutdinov N.F., Polyakov N.Ye. va Selyutinalar O.Yu. rahbarligida GKning suvda qiyin eruvchi preparatlar bilan kompleks hosil qilish mexanizmini lapakonitin, nifedipin, karotinoidlar, zeaksantin,  $\beta$ -karotin misolida tadqiq etishgan.

Respublikamizda bugungi kunda GK va uning hosilalari, xususan, GKning monoammoniyli tuzi (MG) ham suvda qiyin eriydigan dori vositalari bilan “mehmon-mezbon” tipidagi komplekslari olingan. Jumladan, OʻzR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutida k.f.d., prof. Dalimov D.N. va uning izdoshlari k.f.d., prof. Gafurov M.B., k.f.d., prof. Matchanov A.D. rahbarligida *Glycyrrhiza glabra* – qizilmiya oʻsimligi ildizidan GK va uning monoammoniyli tuzining suvda qiyin eriydigan prednizolon (Glipred), asetilsalitsil kislota (GLAS), izoniazid (Tuglizid), megosin (Megaferon), lagoxilin (Glilagin) kabi preparatlar bilan komplekslari olingan. Bioorganik kimyo institutida supramolekulyar komplekslar asosida kam dozali preparatlarni yaratishda izlanishlar davom etmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy–tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Bioorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-FA-2019-35 “Mahalliy oʻsimlik xomashyolari asosida immunotrop vositalar yaratish” (06.2019-05.2022) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** mahalliy oʻsimlik xom ashyosidan (qizilmiya, *Glycyrrhiza glabra*, yapon soforasi, *Sophora japonica*) supramolekulyar komplekslar asosida olingan gepatoprotektor xususiyatga ega boʻlgan past dozali kompozitsiyaning biologik faolligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

MG bilan har xil tabiatli antioksidantlar (flavonoidlar, fenol kislotalar, aminokislotalar) kompleks birikmalarining *in vitro* sharoitida antiradikal faolligini baholash;

flavonoidlar, fenol kislotalar va aminokislotalarning MG bilan olingan supramolekulyar komplekslarining toksikologik xususiyatlari, gepatoprotektor va oʻt haydovchi faolliklari *in vivo* skriningini oʻtkazish;

*in vitro* va *in vivo* tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra, MG va bir nechta antioksidantlardan iborat ko'p komponentli kompozitsiyalar uchun yuqori samarali komplekslarni tanlash va ular asosida kompozitsiya variantlarini tayyorlash;

olingan kompozitsiyalar orasidan zaharlilik, gepatoprotektor faolligi, immunotrop xususiyatlar bo'yicha yuqori samarali kompozitsiyani tanlash va uni mahalliy, xorijiy gepatoprotektor dori vositalari bilan qiyoslash;

kompozitsiya tarkibidagi komponentlar biologik o'zlashtirilishining ortishi kompleks hosil bo'lishi bilan bog'liqligini *in vivo* tajriba modellarida, instrumental usullar yordamida isbotlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida GKning monoammoniyli tuzi (MG), aminokislotalar (aminokislotalar: arginin (Arg), metionin (Met), triptofan (Trp), sistein (Cys), DL-karnitin·HCl (Car); flavonoidlar: kversetin (Que), rutin (Rut); fenol kislotalar: dolchin (CinA), metoksidolchin (MethA) va ferul (FerA) kislotalari), MGning supramolekulyar komplekslari va kompozitsiyalari, laboratoriya hayvonlari (sichqon, kalamush), qon, organlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** supramolekulyar komplekslar va kompozitsiyalarning antiradikal *in vitro* sharoitida, gepatoprotektor, immunotrop ta'sirini *in vivo* sharoitida o'tkir gepatit modelida aniqlash; me'yoriy fiziologik sharoitlarda kompleks va kompozitsiyalarning hayvon organizmiga zaharli va o't haydovchi ta'sirini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida fizik-kimyoviy, biologik, biokimyoviy, farmakologik, immunologik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

arginin, metionin, triptofan, sistein, DL-karnitin HCl, kversetin, rutin, dolchin, metoksidolchin va ferul kislotalarning MG bilan komplekslariga o'tganda antiradikal faolligi *in vitro* sharoitida 1,6 dan 6,5 marta ortishi aniqlangan;

birinchi marta glitsirrizin kislotasi monoammoniyli tuzining metoksidolchin kislotasi, metionin, kversetin bilan komplekslari yuqori gepatoprotektor faolligi; karnitin, sistein bilan komplekslari yallig'lanishga qarshi yaqqol faolligi; karnitin, kversetin bilan komplekslarigepatit muhitida qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlarni me'yorlashtirishi metionin, metoksidolchin kislotasi bilan komplekslari gepatotsitlarning detoksikasiya faolligini tiklanishi aniqlangan;

birinchi marta 4:0,5:0,5:0,5 molyar nisbatdagi 5 ta: MG:MethA:Cys:Que (C-1), MG:MethA:Met:Que (C-2), MG:Rut:Trp:Car (C-3), MG:Car:Cys:Que (C-4), MG:FerA:Car:Cys (C-5) kompozitsiyalarning spetsifik faolligi tadqiq etilganda eng yuqori gepatoprotektor, antioksidant, immunotrop ta'sir C-4 kompozitsiyada ekanligi asoslangan;

barcha tadqiq qilingan komplekslar va kompozitsiyalar oshqozon va qorin bo'shlig'i orqali kiritilganda, ularning kam zaharli birikmalar sinfiga oid ekanligi isbotlangan;

C-4 kompozitsiyasining tarkibiy komponentlari (MG, karnitin, kversetin, sistein) ekvivalent dozada alohida qo'llanilganda, gepatoprotektor faollikning yo'qolishi *in vivo* tajribalarda isbotlangan;

C-4 kompozitsiyasining tarkibiy qismida kversetin o'rniga ekvivalent molyar

nisbatda rutin kiritilganda, yangi kompozitsiya tarkibidagi rutin hayvonlar ichagida biotransfarmatsiyaga uchramasdan, o'zgarmagan holda qon plazmasiga o'tishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

C-4 misolida MG asosida ko'p komponentli biologik faolligi yuqori bo'lgan kompozitsiyalar olish imkoniyati borligi asoslangan;

mahalliy o'simlik xomashyolari asosida olingan C-4 kompozitsiya gepatoprotektor, immunotrop faolligi bo'yicha tibbiyot amaliyotida qo'llanuvchi Gepa-NOVO gepatoprotektor dori vositasidan samarali ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** olingan natijalar zamonaviy biokimyoviy, gematologik hamda farmakologik usullardan foydalanilganligi, natijalarning tegishli statistik usulda qayta ishlanganligi, ushbu natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, shuningdek, natijalarning milliy va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati antioksidantlar (aminokislotalar va fenol birikmalar)ning MG bilan komplekslari antiradikal faolligi *in vitro* sharoitida antioksidantlar o'ziga nisbatan 1,6 dan 6,5 marta ortishi; MGning Met, MethA, Que bilan komplekslari yuqori gepatoprotektor faollik; Car, Cys bilan komplekslari yallig'lanishga qarshi yaqqol faollik ko'rsatishi; Met, MethA komplekslari jigar hujayralarining detoksikasiya faolligini va Car, Que gepatit muhitida qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarni me'yorlashtirishini namoyon etganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, C-4 kompozitsiyasining gepatoprotektor, immunotrop ta'siri Gepa-NOVO gepatoprotektor dori vositasidan samarali ekanligi o'tkir zaharli gepatit modelida umumiy oqsil darajasi, ALT, AST, mochevina, qonning gemostaz ko'rsatkichlarini (protrombin vaqti, qisman faollashtirilgan tromboplastin vaqti) normallashtirish, jigar og'irligi ko'rsatkichlarini fiziologik me'yor darajasiga tushirish imkonini beradi xamda xavfsiz, bitta preparatning o'zida gepatoprotektor, antioksidant, immunotrop xususiyatlarga ega bo'lgan dori vositalarni yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Gepatoprotektor, antioksidant, immunotrop xususiyatlarga ega mahalliy o'simlik xomashyosidan ishlab chiqilgan C-4 kompozitsiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

C-4 kompozitsiyasining biologik faolliklaridan "O'simliklar tarkibidan biologik faol birikmalarni ajratib olish, individual birikmalarga ajratish va ular asosida yangi hosilalarini sintez qilish, fizik-kimyoviy va spektral xususiyatlarini hamda biologik faolliklarini tadqiq etish" mavzusidagi loyihada gossipolning diazoimin hosilalari gepatoprotektor xususiyatlarini aniglashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023 yil 03 oktabrdagi 4/1255-2097-son ma'lumotnomasi). Natijada, gossipol diazoimin hosilalari immunitet tizimi va jigar hujayralariga nisbatan regulyatorlik xususiyatlariga ega ekanligi isbotlash imkonini bergan;

C-4 kompozitsiyasidan (20 mg/kg) “Biologik faol birikmalarning struktur funksional tadqiqotlari, ta’sir mexanizmini o’rganish, yuqori samarali dori vositalari va diagnostikumlarni konstruirlash” mavzusidagi fundamental loyihada Fosfogliv farmakopeya preparati (Rossiya) bilan bir qatorda, *Brassica rapa* va *Nigella sativa*, *Sambucus nigra* dorivor o’simliklardan ajratilgan birikmalar bilan sichqonlarda o’tkir toksik gepatit va uning asoratlarini davolashda qiyosiy preparat sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ma’lumotnomasi, 2023 yil 03 oktabr № 4/1255-2097). Natijada, *Brassica rapa*, *Nigella sativa*, *Sambucus nigra* dorivor o’simliklaridan olingan birikmalarning jigar hujayralarini qayta tiklash va immunitet tizimini rag‘batlantirish xususiyatlariga ega ekanligi isbotlash imkonini bergan;

glitsirizin kislotasi monoammoniyli tuzi kompozitsiyasidan Barselona universiteti, Biokimyoviy va molekulyar biologiya Departamenti, Tibbiyot fakulteti, Biofizika bo‘limi loyihasida organizmdagi oksidlovchi stressning gepatoproteksiya bilan bog‘liqligini baholashda yangi dori yetkazib berish tizimlarini o’rganishda foydalanilgan (Barselona universitetining 2024 yil 27 maydagi ma’lumotnomasi). Natijada, hosil bo‘lgan komplekslarni biologik o‘zlashtirishni oshirishini aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 14 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 7 ta maqola: asosiy natijalarini e’lon qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan xorijiy jurnallarda 2 ta hamda respublika jurnallarida 5 ta ilmiy maqola e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Kirish, to‘rtta bob, yakuniy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 107 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyligi, ularning maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishiga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish asoslari ochib berilgan, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Gepatorprotektorlar, gepatitning og‘ir asoratlari profilaktikasi, uni davolash va oldini olish**» deb nomlangan birinchi bobida turli xil etiologiyali gepatitlar muammosi, ularning asoratlari va ushbu patologiyaning korreksiyalash mumkin bo‘lgan usullari, shu jumladan o’simlik preparatlari yordamida davolash bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarning tahlili keltirilgan. Xususan, yalang‘och qizil miya o’simligidan olingan glitsirizin kislotasining gepatoprotektorlik xossasi, shuningdek, uning biologik faol birikmalar, shu

jumladan yuqori antioksidant xususiyatlarga ega bo'lgan aminokislotalar (metionin, sistein, triptofan, arginin, L-karnitin), flavonoidlar (rutin, kversetin) va fenol kislotalar (dolchin, metoksidolchin va ferul kislotalari) bilan kompleks hosil qilib, organizmda dori yetkazib berish tizimi hosil qilishiga asoslangan preparatlarni olish imkonini beruvchi xususiyatidan foydalanish istiqbollari ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Gepatoprotektorlarni ishlab chiqishning zamonaviy modellari va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida qo'yilgan vazifalarni bajarishda foydalanilgan usul va materiallar haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Antiradikal faollikni aniqlash uchun *in vitro* zamonaviy usullari, o'tkir zaharli gepatitning *in vivo* modellarida jigar disfunktsiyasini o'rganish (detoksikasiya, sintez, antioksidantlik, immunologik va boshqa funksiyalar), o'rganilayotgan komplekslar va kompozitsiyalarning strukturaviy va funksional bog'liqligini aniqlash, shuningdek, ularning xavfsizligi va jigarining safro hosil qilish va ajratish faoliyati xususiyatlarini baholashning farmakotoksikologik usullari batafsil tavsiflangan. Tadqiq qilingan birikmalar (komplekslar, kompozitsiyalar) va qiyosiy preparatlar tajriba hayvonlarining turi va tadqiqot modellariga bog'liq holda dozalarni hisoblash usullari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Supramolekulyar komplekslar, ularning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobi glitsirrizin kislotali monoammoniyli tuzining (MG) antioksidantlar (aminokislotalar: arginin (Arg), metionin (Met), triptofan (Trp), sistein (Cys), DL-karnitin·HCl (Car) va fenol birikmalar: kversetin (Que), rutin (Rut), dolchin (CinA), metoksidolchin (MethA) va ferul (FerA) kislotalari) bilan 4:1 molyar nisbatda olingan 10 ta kompleksning tadqiqot natijalariga bag'ishlangan (1-rasm).



1-rasm. MGning supramolekulyar komplekslari sxemasi

Olingan komplekslarning antiradikal faolligi (ARF) antioksidantlar va MG bilan taqqoslab *in vitro* tadqiq qilindi. Moddalarning ARF ko'rsatkichi quyidagi tartibda kamaydi: Rut > Que > MethA > Arg > FerA va boshqalar; barcha

o'rganilgan antioksidantlarning kompleksi ARFning 1,5-6,5 martaga ortishiga olib keldi ( $p < 0,05$ ), MG: MethA > MG:Car > MG:Met > MG:Arg > MG:Trp va boshqalar (1-jadval).

1 -jadval

**Antioksidantlar va ular bilan olingan supromolekulyar komplekslarning qiyosiy antiradikal faolliklari**

| Moddalar   | Individual holda, IC <sub>50</sub> , mg/l | Kompleks tarkibida IC <sub>50</sub> , mg/l | Individual moddalarga nisbatan kompleksdagi |                                     |
|------------|---|--|---|-------------------------------------|
|            |   |  | ARF ortish darajasi                         | Modda miqdorining kamayish darajasi |
| PRAA usuli |   |  |   |                                     |
| MethA      | 1,72±0,05***                              | 0,52±0,02 <sup>##</sup>                    | 3,3   | 65,6                                |
| Car        | 3,47±0,10****                             | 0,53±0,02 <sup>##</sup>                    | 6,5   | 143,0                               |
| Met        | 2,58±0,08***                              | 0,56±0,02 <sup>##</sup>                    | 4,6   | 108,4                               |
| Arg        | 1,89±0,05***                              | 0,59±0,02 <sup>##</sup>                    | 3,2   | 65,0                                |
| Trp        | 2,35±0,07***                              | 0,68±0,02 <sup>##</sup>                    | 3,5   | 60,3                                |
| FerA       | 2,06±0,06***                              | 0,72±0,02 <sup>##</sup>                    | 2,9   | 52,4                                |
| CinA       | 2,27±0,07***                              | 0,93±0,03 <sup>##</sup>                    | 2,4   | 68,8                                |
| Que        | 1,68±0,05**                               | 1,13±0,03 <sup>##</sup>                    | 1,5   | 18,0                                |
| Rut        | 1,58±0,05*                                | 1,26±0,03 <sup>##</sup>                    | 1,3   | 8,2                                 |
| Cys        | 3,56±0,10***                              | 1,72±0,05 <sup>#</sup>                     | 2,1   | 59,6                                |
| MG         | 4,45±0,13                                 |  |   |                                     |
| FRAP usuli |   |  |   |                                     |
| MethA      | 0,82±0,02***                              | 0,25±0,01 <sup>###</sup>                   | 3,3   | 65,1                                |
| Car        | 1,65±0,05***                              | 0,25±0,01 <sup>##</sup>                    | 6,6   | 144,1                               |
| Met        | 1,23±0,03****                             | 0,25±0,01 <sup>###</sup>                   | 4,9   | 115,8                               |
| Arg        | 0,90±0,03***                              | 0,28±0,01 <sup>###</sup>                   | 3,2   | 65,2                                |
| Trp        | 1,12±0,03***                              | 0,32±0,01 <sup>###</sup>                   | 3,5   | 61,1                                |
| FerA       | 0,98±0,03***                              | 0,34±0,01 <sup>###</sup>                   | 2,9   | 52,8                                |
| CinA       | 1,08±0,03***                              | 0,44±0,01 <sup>###</sup>                   | 2,5   | 58,2                                |
| Rut        | 0,75±0,02**                               | 0,45±0,01 <sup>###</sup>                   | 1,7   | 10,8                                |
| Que        | 0,80±0,02**                               | 0,54±0,02 <sup>###</sup>                   | 1,5   | 18,0                                |
| Cys        | 1,54±0,05***                              | 0,55±0,02 <sup>##</sup>                    | 2,8   | 80,5                                |
| MG         | 2,12±0,06                                 |  |   |                                     |

Eslatma: \* -  $p < 0,05$ , \*\* -  $p < 0,01$ , \*\*\* -  $p < 0,001$ , \*\*\*\* -  $p < 0,0001$  –komplekslar bilan individual moddalar orasidagi ahamiyatli farqlar; # -  $p < 0,05$ , ## -  $p < 0,01$ , ### -  $p < 0,001$  komplekslarning MG orasidagi ahamiyatli farqlar.

Shu bilan birga nazariy hisob-kitoblar asosida ekvivalent faollikga ega bo'lgan kompleksdagi moddalar miqdorini kamayishini aytib o'tish zarur. Bunda kompleksdagi flavonoidlar miqdori 10-20 martaga, fenol kislotalar miqdori 50-70 martaga va aminokislotalar miqdori 60-150 martaga kamayganligi kuzatildi (1-jadval). Komplekslarning umumiy ta'siri va o'tkir zaharliligi sichqonlarda bir marta oshqozonga va qorin bo'shlig'iga yuborish orqali aniqlandi. Oshqozonga yuborilganda barcha komplekslar VI – nisbatan zararsiz birikmalar sinfiga kiritildi. MG:Car, MG:Cys va MG:MethA komplekslari qorin bo'shlig'iga kiritilganda VI-nisbatan zararsiz birikmalar, qolganlari esa V-deyarli zaharli bo'lmagan birikmalar sinflariga mansubligi aniqlandi. Ular orasida MG:Car, MG:Cys va MG:MethA komplekslari eng kam zaharli deb topildi. Intakt kalamushlarda supramolekulyar komplekslarning jigarning safro hosil qilish va ajratish faoliyati skriningsi

o'tkazilganda, komplekslar orasida statistik ahamiyatli farqlar yo'qligi aniqlangan, biroq barcha komplekslarning kuchsiz safro haydash xususiyati kuzatilgan.

Sichqonlarda  $CCl_4$  bilan chaqirilgan zaharli gepatit *in vivo* modelida Supramolekulyar komplekslar 5 mg/kg dozada oshqozonga yuborilganda, ularning gepatoprotektor faollik koeffitsienti (GFK) 1) hayvonlarning yashovchanligi (%), 2) umrining davomiyligi (kunlar), 3) jigarning og'irlik koeffitsienti bo'yicha baholandi (2-jadval).

2-jadval

**$CCl_4$  bilan induksiyalangan gepatitli sichqonlarda 5 mg/kg dozada o'rganilayotgan Supramolekulyar komplekslarning gepatoprotektor faolliigi *in vivo* ( $M \pm m$ ,  $n=4$ )**

| Guruhlar                                       | Sichqonlarning yashovchanligi (%) | Umrining davomiyligi (kunlar) | Jigarning og'irlik koeffitsienti | Umumiy GFK |
|--|-----------------------------------|-------------------------------|----------------------------------|------------|
| Sog'lom hayvonlar                              | 100                               | -                             | 4,60±0,26                        | 1          |
| Nazorat hayvonlari                             | 25                                | 1±0,2                         | 7,41±0,68                        | 0          |
| Yuqori gepatoprotektor faollik darajasi        |                                   |                               |                                  |            |
| MG:MethA                                       | 100                               | -                             | 5,80±0,24                        | 0,86       |
| MG:Met   | 100                               | -                             | 6,00±0,46                        | 0,83       |
| MG:Que   | 100                               | -                             | 6,34±0,51                        | 0,79       |
| O'rtacha gepatoprotektor faollik darajasi      |                                   |                               |                                  |            |
| MG:Rut   | 50                                | 5±0,3*                        | 6±0,49                           | 0,54       |
| MG:Car   | 50                                | 1,5±0,1                       | 4,75±0,39*                       | 0,46       |
| MG:FerA  | 75                                | 1                             | 5,74±0,34                        | 0,42       |
| Nisbatan past gepatoprotektor faollik darajasi |                                   |                               |                                  |            |
| MG:Arg   | 75                                | 2*                            | 6,73±0,48                        | 0,37       |
| MG:Cys   | 25                                | 2±0,2*                        | 5,16±0,36*                       | 0,33       |
| MG:Trp   | 50                                | 2±0,2*                        | 6,20±0,53                        | 0,32       |
| MG:CinA  | 75                                | 1                             | 7,28±0,55                        | 0,24       |

Eslatma: \* –  $p < 0,05$  nazoratga nisbatan

Hayvonlarda jigarning eng yuqori detoksikasiya darajasi MG:MethA, MG:Met, MG:Que komplekslari ta'sirida kuzatilib, ularning 100% tirik qolishiga erishilgan. Shunday qilib,  $CCl_4$  bilan chaqirilgan gepatitli sichqonlarga 5 mg/kg dozada bir marta oshqozonga yuborilgan MG:MethA, MG:Met, MG:Que komplekslari yuqori gepatoprotektor faollik darajasi, MG:Rut, MG:Car, MG:FerA o'rta gepatoprotektor faollik darajasini namoyon etgan. MG:Car va MG:Cys komplekslarining kiritilishi jigar vazni koeffitsientlarini mos ravishda o'rtacha 35 va 30% ga kamayishiga olib keldi (nazoratga nisbatan  $p < 0,05$ ).

Keyingi tadqiqotlarda aniqlangan o'tkir zaharlash parametrlari, ARF, GFK ko'rsatkichlar bo'yicha MG:MethA, MG:Met, MG:Que va MG:Car komplekslari tanlangan. MG:MethA, MG:Met, MG:Que va MG:Car komplekslarning 2,5 va 5 mg/kg dozalaridagi biologik faolliigi bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha kalamushlarda parasetamol bilan chaqirilgan o'tkir zaharli gepatit (O'ZG) modelida Gepa-NOVO preparati (150 mg/kg) bilan qiyosiy tahlil qilindi.

*In vitro* va *in vivo* kompleks birikmalarini o'rganish natijalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar turli xil ta'sirga ega bo'lgan bir nechta komponentlarni bitta kompozitsiyada birlashtirish

zarurligini ko'rsatdi: "tashuvchi" sifatida-glitsirizin kislotasining monoammoniy tuzi; "mehmon" molekular sifatida-3 ta antioksidant tanlandi.

### 3-jadval

#### O'rganilgan ko'rsatkichlar bo'yicha tanlangan komplekslar

| Model  | Ko'rsatkichlar  | Komplekslar                              |
|--|---|--|
| <i>Invitromodel</i>  | Antiradikal faollik (PRAA, FRAP usullar)  | MG:MethA, MG:Car, MG:Met, MG:Arg, MG:Trp |
| CCl <sub>4</sub> bilan chaqirilgan o'tkir zaharli hepatit modeli | Gepatoprotektor faollikning yuqori darajasi   | MG:MethA, MG:Met, MG:Que                 |
|  | Gepatoprotektor faollikning o'rta darajasi  | MG:Rut MG:Car, MG:FerA                   |
|  | Yallig'lanishga qarshi xususiyat  | MG:Car, MG:Cys                           |
| Paratsetamolli hepatit modeli                                    | Gepatotsitlar reparatsiyasi (biokimyoviy ko'rsatkichlar: ALT, AST, UO, UX, BLN, GLK, mochevina) | MG:Car, MG:Que                           |
|  | Gemostaz ko'rsatkichlarining tiklanishi (PV, QFTV, fibrinogen)                                  | MG:Car, MG:Que                           |
|  | Gepatotsitlarning detoksikatsion faolligi   | MG:MethA, MG:Met                         |
| O'tkir zaharlilik  | O'rtacha o'lim dozasi LD <sub>50</sub>  | MG:Car, MG:Cys, MG:MethA                 |

To'rtinchi bobda «**Supramolekulyar komplekslar asosida olingan kompozitsiyalar**» bo'yicha olingan natijalar yoritilgan bo'lib, tadqiqotlar davomida 4:0,5:0,5:0,5 molyar nisbatda C-1 (MG:MethA:Cys:Que), C-2 (MG:MethA:Met:Que), C-3 (MG:Rut:Trp:Car), C-4 (MG:Car:Cys:Que), C-5 (MG:FerA:Car:Cys) 5 ta kompozitsiya olingan va o'rganilgan. Kompozitsiyalarning o'tkir zaharliligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular oshqozonga yuborilganda VI-nisbatan zararsiz birikmalar sinfiga tegishliligi aniqlangan. Sichqonlarning qorin bo'shlig'iga kiritilganda LD<sub>50</sub> o'rtacha o'lim dozasi 708-1200 mg/kg bo'lib, V-deyarli zaharli bo'lmagan birikmalar sinfiga kiritilgan. Qorin bo'shlig'iga kiritilganda eng past o'tkir zaharlilik C-4 kompozitsiyasida bo'lgan, LD<sub>50</sub>=1200 mg/kg tashkil etgan.

Kompozitsiyalarning hepatoprotektor faolligini baholash sichqonlarda CCl<sub>4</sub> chaqirgan O'ZG modelida o'tkazildi (4-jadval). Eng yaxshi hepatoprotektor faollik C-4 kompozitsiyasining 10 mg/kg dozasida aniqlangan. Xuddi shu dozada C-3 tarkibining ta'siri biroz kamroq bo'ldi.

### 4-jadval

#### Sichqonlarda CCl<sub>4</sub> bilan chaqirilgan O'ZG modelida o'rganilayotgan kompozitsiyalarning hepatoprotektor faolligi, (M±m, n=9)

| Guruhlar          | Sichqonlarning yashovchanligi (%) | O'lgan hayvonlarning yashash davomiyligi (kunlar) | Jigarning og'irlik koeffitsienti | GFK   |
|-------------------|-----------------------------------|---|----------------------------------|-------|
| Sog'lom hayvonlar | 100                               | -   | 4,60±0,26                        | 1     |
| Nazorat           | 11,1                              | 3,22±0,52   | 8,4±0,68*                        | 0     |
| C-4, 10 mg/kg     | 66,7                              | 4,78±0,62   | 7,60±0,24*                       | 0,58  |
| C-3, 10 mg/kg     | 55,6                              | 4,44±0,63   | 7,40±0,46*                       | 0,464 |
| C-1, 10 mg/kg     | 44,4                              | 4,33±0,67   | 6,2±0,39*#                       | 0,384 |
| C-2, 10 mg/kg     | 22,2                              | 4±0,47  | 7,00±0,36*                       | 0,205 |
| C-5, 10 mg/kg     | 33,3                              | 3,33±0,62   | 7,6±0,49*                        | 0,143 |

Eslatma: # - p<0,05 nazoratga nisbatan, \* - p<0,05 sog'lom hayvonlarga nisbatan

Immunotrop faollikni o'rganish uchun 5 ta gepatoprotektor faollik ko'rsatgan kompozitsiyadan 4 tasi tanlandi: C-1, C-2, C-3 va C-4 (1,25, 2,5 va 5,0 mg/kg dozalarda). Me'yoriy fiziologik sharoitda tanlangan kompozitsiyalarning immunotropfaolligini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, Gepa-NOVO bilan qiyoslaganda C-1 kompozitsiyasi 2,5 va 5,0 mg/kg dozalarda, C-4 kompozitsiyasi 2,5 mg/kg dozada eng katta immunostimulyator faollikka ega bo'ldi (5-jadval).

**5-jadval**

**Kompozitsiyalarning qo'y eritrotsitlariga qarshi immun javobiga ta'siri (M±m, n=5)**

| Guruhlar  | Doza       | Taloq og'irligi, mg | RI    | TYaHsoni ×10 <sup>6</sup> | RI   | Butun taloqda AHH | RI   |
|-----------|------------|---------------------|-------|---------------------------|------|-------------------|------|
| Nazorat   | Dis. suv   | 170,4±2,96          | -     | 28,8±3,74                 | -    | 1440,0±187,3      | -    |
| Gepa-NOVO | 150 mg/kg  | 186,6±4,41          | 2,59  | 59,2±6,32**               | 2,05 | 2960,0±316,4**    | 2,05 |
| C-1       | 1,25 mg/kg | 128,2±1,45          | -0,75 | 45,8±4,81*                | 1,59 | 2290,0±240,5*     | 1,59 |
|           | 2,5 mg/kg  | 154,8±2,51          | -0,9  | 58,8±8,20**               | 2,04 | 2940,0±46,5**     | 2,04 |
|           | 5,0 mg/kg  | 164,2±1,60          | -0,96 | 62,4±7,04*                | 2,23 | 3120,0±352,4**    | 2,16 |
| C-2       | 1,25 mg/kg | 155,2±8,81          | -0,91 | 41,8±5,42                 | 1,45 | 2090,0±271,3      | 1,45 |
|           | 2,5 mg/kg  | 181,4±1,68          | 2,56  | 53,4±8,65*                | 1,85 | 2670,0±432,6*     | 1,85 |
|           | 5,0 mg/kg  | 181,2±2,16          | 1,66  | 39,0±6,80                 | 1,35 | 1950,0±340,2      | 1,35 |
| C-3       | 1,25 mg/kg | 130,4±2,62          | -0,76 | 47,0±3,14**               | 1,63 | 2350,0±157,3**    | 1,63 |
|           | 2,5 mg/kg  | 168,0±1,99          | -0,98 | 52,4±4,35***              | 1,82 | 2632,0±220,5*     | 1,87 |
|           | 5,0 mg/kg  | 105,0±4,44          | -0,61 | 39,2±2,56**               | 1,36 | 1960,0±53,4*      | 1,36 |
| C-4       | 1,25 mg/kg | 96,4±1,33           | -0,56 | 42,8±1,90*                | 1,48 | 2140,0±95,3*      | 1,48 |
|           | 2,5 mg/kg  | 151,4±4,29          | -0,88 | 58,8±5,51**               | 2,04 | 2940,0±275,9**    | 2,04 |
|           | 5,0 mg/kg  | 116,6±1,45          | -0,68 | 39,0±3,89                 | 1,35 | 1950,0±194,9      | 1,35 |

Eslatma: AHH- antitana hosil qiluvchi hujayralar, TYaH – taloqning yadroli hujayralari, RI – rag'batlantirish indeksi, \* - p<0,05, \*\* - p<0,01 va \*\*\* - p<0,001 nazoratga nisbatan.

Gepatoprotektor va immunotrop faollikning skriningi davomida o'tkazilgan ikkita tajribaning yakuniy natijasiga ko'ra, shuningdek, kompozitsiyalarning o'tkir zaharlilik ko'rsatkichlari asosida keyingi tadqiqotlar uchun C-4 kompozitsiyasi tanlandi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, 2 komponentdan iborat MG:MethA; MG:Met; MG:Que komplekslar avvalgi tajribalarda yuqori gepatoprotektor faollik darajasini (GFK 0,7 va undan yuqori) ko'rsatgan bo'lsa, C-4 va C-3 kompozitsiyalar o'rtacha gepatoprotektor faollik ko'rsatgan edi, shuning uchun biz tashuvchi va 3 ta komponentdan iborat bo'lgan kompozitsiyalarda komponentlarning ulushi 3 barobarga kamayadi, bu esa davolash samarasini kamayishiga olib keladi deb taxmin qildik. Shu munosabat bilan, keyingi tadqiqotlarda C-4 kompozitsiya tanlanib, uning terapevtik dozasi aniqlash maqsad qilindi (6-jadval).

C-4 kompozitsiyaning terapevtik dozasi kalamushlarda paratsetamol bilan chaqirilgan O'ZG modelida 5 va 10 mg/kg dozalarda aniqlandi. Gepatoprotektor faollikni o'rganishda C-4 kompozitsiyasi Gepa-NOVO bilan solishtirildi va 10 mg/kg dozada eng samarali bo'lib chiqdi. Shu bilan birga, yuqori dozalardagi paratsetamolning zaharli ta'siridan kelib chiqqan hepatotsitlarning shikastlanishi tiklandi, ALT va AST fermentlari, umumiy oqsil, mochevina ko'rsatkichlarime'yoriy darajaga tushdi va jigarning sintezlash funksiyasi tiklanib, gemostaz ko'rsatkichlari (protrombin vaqti, PV, qisman faollashtirilgan tromboplastin vaqti, QFTV va fibrinogen) sog'lom hayvonlar darajasiga tushdi.

**C-4 kompozitsiyasining kalamushlarda paratsetomol bilan chaqirilgan gepatit modelida gepatoprotektor faolligi (M±m, n=5)**

| Ko'rsatkichlar                   | Sog'lom hayvonlar | Nazorat      | Gepa-NOVO, 150 mg/kg | C-4          |              |
|----------------------------------|-------------------|--------------|----------------------|--------------|--------------|
|                                  |                   |              |                      | 5 mg/kg      | 10 g/kg      |
| Qonning biokimyo ko'rsatkichlari |                   |              |                      |              |              |
| Umumiy oqsil, g/l                | 61,6 ± 2,6        | 53,3 ± 1,6*  | 63,5 ± 3,5#          | 53,6 ± 2,8*  | 63,0 ± 1,6#  |
| ALT, YeD/l                       | 39,4 ± 4,7        | 61,7 ± 14,4* | 40,5 ± 4,3#          | 56,6 ± 3,0*+ | 41,5 ± 3,8#  |
| AST, YeD/l                       | 33,0 ± 4,1        | 51,7 ± 12,5* | 38,5 ± 4,9#          | 40,1 ± 2,4#  | 36,2 ± 5,3#  |
| Mochevina, mmol/l                | 4,4 ± 0,4         | 2,5 ± 0,6*   | 4,4 ± 0,5#           | 5,3 ± 0,1#   | 5,0 ± 0,2#   |
| Gemostaz ko'rsatkichlari         |                   |              |                      |              |              |
| PV, soniya                       | 23,1±1,2          | 78,7±4,5*    | 18,7±1,6#            | 50,5±3,5*#+  | 22±1,4#      |
| QFTV, soniya                     | 29,0±1,1          | 145,7±12,0*  | 46,4±2,8*#           | 29,3±1,3#+   | 27,4±1,1#+   |
| Fibrinogen, mg/dl                | 400±26,0          | 256,5±26,0*  | 267,5±14,7*          | 475±28,0#+   | 406,5±26,4#+ |

Eslatma: # - p<0,05 nazoratga nisbatan, \*- p<0,05 sog'lom hayvonlarga nisbatan, + - p<0,05 Gepa-NOVOga nisbatan

Shunday qilib, kalamushlarda C-4 kompozitsiyasining terapevtik dozani aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu kompozitsiyaning eng samarali dozasi 10 mg/kg ekanligi aniqlandi (sichqonlar uchun 20 mg/kg).

Tadqiqotning keyingi bosqichida C-4 kompozitsiyasining zaharli (CCl<sub>4</sub> kiritish orqali chaqirilgan) gepatit muhitida ikkilamchi immunitet tanqisligi modelida immunotrop xususiyatlari aniqlandi. Ma'lumki, jigar eng rivojlangan immunitet to'qimasi bo'lib, u ichaklarga kiradigan bakteriyalar, viruslar va makromolekulalarni zararsizlantirishda, o'tkir faza oqsillarni, antitanalar, komplementar tizim oqsillari, sitokinlar/interleykinlar va boshqalarni sintez qilishda ishtirok etadi. C-4 kompozitsiyasining, 20 mg/kg, va Gepa-NOVO preparatining, 300 mg/kg, immunotrop faolligi 5 kunlik davolanishdan keyin O'ZG bo'lgan sichqonlarning gumoral immunitetiga ta'siri 1) qo'y eritrotsitlariga (QE) javoban taloqning antitana hosil qiluvchi hujayralari (AHH), 2) taloq yadroli hujayralari (TYaH), 3) qon zardobidagi qo'y eritrotsitlariga qarshi antitanalar titri ko'rsatkichlari bo'yicha baholandi (7-jadval). C-4 kompozitsiyaning ikkilamchi immunitet tanqisligi mavjud bo'lgan sichqonlarning hujayra immunitetiga ta'siri 1) markaziy (timus, ilik ko'migi) va periferik (limfa tugunlari) immun tizimi organlaridagi hujayralarning umumiy soni, 2) qondagi leykotsitlar ko'rsatkichi bo'yicha o'rganildi (8-jadval).

**Ikkilamchi immunitet tanqisligi modelida C-4 kompozitsiyasining sichqonlarning gumoral immunitetiga ta'siri (M±m, n=6)**

| Ko'rsatkichlar   | Sog'lom hayvonlar | Nazorat guruhi | RI   | Gepa-NOVO, 300 mg/kg | RI   | C-4, 20 mg/kg  | RI   |
|--|-------------------|----------------|------|----------------------|------|----------------|------|
| taloqda AHH  |                   |                |      |                      |      |                |      |
| TYaH, *10 <sup>6</sup>   | 170,9± 4,0        | 105,6± 2,6*    | -1,6 | 128,2± 2,9*#         | +1,2 | 129,5± 2,9*#   | +1,2 |
| Taloqda AHH  | 5356,3±310,7      | 912,5±54,9*    | -5,9 | 1737,5±103,8*#       | +1,9 | 1918,8±113,4*# | +2,1 |
| 10 <sup>6</sup> TYaHga AHH soni                                | 31,4±1,7          | 8,6±0,5*       | -3,7 | 13,6±0,8*#           | +1,6 | 14,8±0,8*#     | +1,7 |
| qon zardobidagi qo'y eritrotsitlariga qarshi antitanalar titri |                   |                |      |                      |      |                |      |
| Antitanalar titri (log <sub>2</sub> )                          | 4,8 ± 0,3         | 2,1 ± 0,1*     | -2,3 | 3,0 ± 0,2*#          | +1,4 | 2,9 ± 0,1*#    | +1,4 |

Eslatma: AHH-antitana hosil qiluvchi hujayralar, TYaH-taloqning yadroli hujayralari, RI-rag'batlantirish indeksi bo'yicha: (-) - sog'lom hayvonlarga nisbatan, (+)-nazoratga nisbatan; \* - p<0, 05 – sog'lom hayvonlarga nisbatan, # - p<0, 05 – nazoratga nisbatan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 20 mg/kg dozada C-4 kompozitsiya O'ZG bo'lgan sichqonlarda ikkilamchi immunitet tanqisligini tiklagan: butun taloqdagi AHH soni 2,1 marta ortdi; 1 million splenotsitga to'g'ri keladigan AHH soni-1,72 marta; qonda qo'y eritrotsitlariga qarshi antitanalar titri-1,43 marta; immunitet organlaridagi hujayralar soni: timusda-1,45 marta, ilik ko'migida-1,30 marta, limfa tugunlarida-1,36 marta; qonda eritrotsitlar 1,29 marta va leykotsitlar soni 1,38 martaga ortdi. Sichqonlar talog'idagi AHH populyatsiyasiga nisbatan faolligi bo'yicha, qo'y eritrotsitlariga qarshi antitanalar titri, immun tizimi organlari hujayralarining umumiy soni, O'ZG bo'lgan hayvonlar qonida eritrotsitlar va leykotsitlar darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha C-4 kompozitsiyasi Gepa-NOVO qiyosiy preparatidan kam emas.

### 8-jadval

